



## SPORT SOHASIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH, SPORT O'YINLARI MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

**Mahmutaliev Adhamjon Meliboevich**

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning o`shishi bilan birgalikda dunyo tillarining ma`lum bir ma`nodagi integratsiyasiga ham sabab bo`lmoqda. Masalan biror bir atama o`z mohiyatini jamiyatning boshqa tarmoq sohaslariga ham targ`ib qilinishi nuqtayi nazaridan kengayib bormoqda. Korporatsiya va korporativ boshqaruv atamasi ham bunga misol bo`la oladi. Корпоративное управление (англ. corporate governance- umumiy(korporativ) boshqaruv) важное понятие, до сих пор не имеющее точного определения в русскоязычной литературе и толкуемое: как система: отчётности управленцев перед акционерами; взаимоотношений менеджеров и владельцев компании<sup>223</sup>. Demak, dastlab asosan aksiyadorlik jamiyati va boshqaruv menejmenti sohasidagi o`zaro umumiylik nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu atama strategik boshqaruv sifatida ham adabiyotlarda tilga olingan. "Korporativ boshqaruvning Osiyocho, Rossiya va ingliz-Amerika ko`rinishlari bo`lib, ular mazmun jihatdan bir xil ammo tizim jihatdan farqlanadi".<sup>224</sup>

Xo`sh, korporativ boshqaruvni rivojlantirish mexanizmini shakllantirish va takomillashtirishni sport sohasi bilan bog`liqligi qay darajada? Quyida manbalardan foydalangan holda yechim topishga harakat qilindi. Bu bevosita boshqaruv mennejmenti (shaxs sifatida sport menejeri) tarmog`i bilan uzviy bog`liq. Agar ma`lum bir sport turi bo`yicha(asosan jamoaviy o`yinlar)boshqaruv sport menejeriga bog`liq bo`lsa, mukammal sport menejerida bo`lishi kerak bo`lgan asosiy fazilatlar - bu ochiqko`ngillik va qat`iyatlilik. Nafaqat muloqotchanlik, balki tillarni bilish ham muhim - hech bo`lmaganda ingliz tili. Sport menejeri jamoatchidir va bu yerda siz potentsial mijozlar bilan ham, o`zingizning qo`l ostidagilar bilan ham, sport klubidagi boshliqlar va boshqa bo`limlar bilan bog`lanishingiz kerak. Tahlilchining mahorati ham muhim - sport tashkilotining boshqa xodimlari uchun axborot materiallarini tayyorlash qobiliyati. Kasb juda xilma-xil bo`lib, juda ko`p fidoyilikni, miyaning kechayu kunduz ishlashini talab qiladi, shuning uchun sport menejeri uchun bu juda muhimdir<sup>225</sup>. Sport tashkilotlarining boshqaruvi esa qarorlar va aniq strategik rejalar ishlab chiqishda yagona tizm va o`zaro uyushqoqlik, hamkorlikni talab etadi. Bunda boshqaruvning ilmiy asoslilik tamoyili zarur bo`lib, barcha boshqaruv harakatlari ilmiy yondashuv va usullarni qo`llash asosida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ilmiy tamoyil aniq tarixiy sharoitlarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ob`ektiv qonuniyatlari va

1. <sup>223</sup>Корпоративное управление: история и практика Архивная копия от 19 декабря 2014 на Wayback Machine // Служба Банка России по финансовым рынкам.

2. ↑ См.: Afuah A. Business Models: A Strategic Management Approach. — McGraw-Hill, 2003. — Ch. 13. Corporate Social Responsibility and Governance.

<sup>225</sup> Корпоративное управление: история и практика Архивная копия от 19 декабря 2014



ilg'or tendentsiyalarini o'rganish, chuqur bilish va ulardan foydalanishni hamda olingan bilimlarni jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida operativ tarzda qo'llashni talab etadi.

Mustaqil fan sifatida sportni korporativ boshqarish ob'ekti mamlakat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining yig'indisi bo'lib, ularning mahsuli jismoniy tarbiya va sport xizmatlaridir. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» gi qonuniga muvofiq jismoniy tarbiya va sport sub'ektlari quyidagilarni o'z ichiga oladi. Sport va sport tashkilotlari, shu jumladan sport-texnik tashkilotlar, sport jamiyatlari, sport klublari, sport mashg'ulotlari markazlari:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari;
- Texnik va amaliy sport turlarini rivojlantiruvchi tashkilotlar;
- Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan o'quv yurtlari;
- Ixtisoslashtirilgan sport o'quv muassasalari;
- Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadqiqot ishlari olib boradigan ilmiy tashkilotlar; Ushbu Qonunga muvofiq boshqa organlar va tashkilotlar.<sup>226</sup>

Sport sohasida korporativ boshqaruvning o'ziga xos funksiyalari mavjud. Boshqariladigan ob'ektga boshqariladigan ta'sirning mazmuni bilan aniqlangan funktsiyalar odatda maxsus (o'ziga xos yoki tarmoqqa xos) boshqaruv funktsiyalari deb ataladi. Sport menejmentining o'ziga xos (tarmoqli) funktsiyalari maxsus ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqaruv mazmunini ochib beradi. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan mas'ul sport tashkilotlarining asosiy vazifalari va funktsiyalari quyidagilar:

- Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi keng aholi qatlamini sportga jalb etish va sog'lom turmush tarzini olib borishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish mas'ul sport tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

- Shuningdek, sport sanoati va infratuzilmani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish va mamlakatimizning sport sohasidagi yutuqlarini xalqaro maydonlarda e'tirof etish kabi bir qator vazifalar ham kiradi. Davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda yoshlar, ayollar, qariyalar va qishloq aholisi o'rtasida sport tadbirlarini ommalashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mas'ul tashkilotlar shahar va tumanlarda milliy sport turlari bo'yicha tadbirlar va musobaqalarning muntazam o'tkazilishini ta'minlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga muvofiq sport sohasini boshqarish va rivojlantirishning 2020-2025 yillarga

<sup>226</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son)



mo'ljallangan aniq tizimi bo'yicha rejalar va vazifalar belgilab qo'yildi<sup>227</sup>. Bunda ayniqsa maqola mavzusi yuzasidan muhim elementlarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylayman.

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sport turlari bo'yicha federasiyalar (uyushmalar) bilan birgalikda hududlarda ixtisoslashtirilgan tuman (shahar), umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarini sport yo'nalishlari bo'yicha zarur o'quv adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va yo'riqnomalar bilan ta'minlash bo'yicha tegishli choralarni ko'rish;

- O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda 2020 yilning 1 iyuniga qadar jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimida yagona elektron boshqaruv tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

- Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

- Davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha yetkazish;

- Joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (selektsiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

- Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport inshootlari va muassasalarining boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, jumladan, "Sport.uz" axborot tizimi orqali sport inshootlarining telekommunikasiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash;

- Sport sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish, shu jumladan, sport tashkilotlarida davlat ulushini kamaytirish bo'yicha zarur choralar belgilash.

Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda yutuqlar bilan birgalikda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, joylarda jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining samarali yaxlit tizimi mavjud emasligi ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini lozim darajada muvofiqlashtirishni, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va targ'ib qilishni ta'minlamayapti.<sup>228</sup>

Xulosa qilib aytganda, ushbu masalalarning amalga oshirish tizimi bevosita sport sohasidagi korporativ boshqaruvni qat'iy tizimlashtirishga va boshqaruvda korrupsion holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

<sup>227</sup> [WWW.Lex.uz](http://WWW.Lex.uz) 2020-yil 20-yanvar

<sup>228</sup> [WWW.LexUz](http://WWW.LexUz) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli Farmoni



### IQTIBOSLAR:

1. Исломов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL, 3(4), 7-11.
2. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. Current research journal of pedagogics, 2(06), 85-89.
3. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.
4. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). Science and innovation, 1(B2), 295-299.
5. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1085-1089.
7. Voxodirjon, X. (2022). O'DAM TANA TUZILISHINI TAXLIL QILISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 108-114.
8. Хайдаров, Б., & Алижонов, Д. (2022). ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 104-107.
9. Хайдаров, Б., & Алижонов, Д. ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. MATERIALLARI TO 'PLAMI, 112.
10. Makhsudov, R. A. (2020). Comparative analysis of the physical performance of senior persons with regulatory requirements. Fan-Sports, (3), 59.
11. Махсудов, Р. А. (2020). УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ БИТИРУВЧИЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ФАНИДАН НАЗАРИЙ БИЛИМЛАРИНИ МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 2).
12. Махсудов, Р. А. (2020). СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ С НОРМАТИВНЫМИ ТРЕБОВАНИЯМИ. Fan-Sportga, (3), 59-60.
13. Махсудов, Р. (2019). Оценка двигательной подготовленности старшеклассников по выполнения учебных нормативов по физическому



воспитанию в общеобразовательных школах. Наука сегодня: проблемы и перспективы развития, 94.

14. Makhsudov, R. A. (2019). IMPROVEMENT OF THEORETICAL KNOWLEDGE OF HIGH SCHOOL STUDENTS IN THE SUBJECT OF" PHYSICAL CULTURE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

15. Махсудов, Р. (2019). Мониторинг физического развития юношей старших классов общеобразовательных школ. Наука сегодня: опыт, традиции, инновации, 47.